

O'ZBEKISTON RIVOJLANAYOTGAN IQTISODIY DAVLAT**O'tkirova Guliruxsor***Karmana tumani kasb-hunar
maktabi tarix fani o'qituvchisi*

Annotatsiya: *Pul inson hayoti uchun ham, iqtisodiyot uchun ham muhim hisoblanadi. Biz qanchalik ko'p maosh olsak, daromad qilsak orzu-maqсадlarimizga erishish osonlashadi. Mamlakat iqtisodiyotida aylanayotgan pul miqdorining optimal darajada ta'minlanishi ham barcha sohalar rivoji va iqtisodiy barqarorlikka erishishga xizmat qiladi.*

Kalit so'zlar: *davlat moliyasi, pul-kredit siyosati, pul muomalasi, Markaziy bank, pul bozori, kredit sohasi, banklar, operatsion maqsad.*

O'zbekiston tizimli islohotlarini boshqa mamlakatlardan ko'ra kechroq boshlagan bo'lsa-da, o'tish davri iqtisodiyotiga ega boshqa mamlakatlar tajribasidan muhim saboqlarni olishi mumkin, deb hisoblaydi jahon mutaxassislari. O'zbekistonda davlat mustaqilligi qo'lga kiritilishi bilanoq tashqi omillardan iloji boricha xoli bo'lgan milliy iqtisodiyotni shakllantirishga kirishildi. Iqtisodiyotni ma'muriy-rejali boshqarishdan ko'p rejali bozor munosabatlariga o'tkazish boshlandi.

Bozor iqtisodiyotiga esa tegishli me'yoriy-huquqiy hujjatlarni qabul qilmasdan o'tib bo'lmasdi. Qisqa vaqt ichida mulk to'g'risida, xususiy tadbirkorlik to'g'risida, davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish to'g'risida, korxonalar to'g'risida, investitsiyalar to'g'risida, soliq va bojxona siyosati to'g'risida va boshqa ko'pgina qonunlar qabul qilindi. Keyinchalik qabul qilingan boshqa qonunlar, shuningdek, hukumat qarorlari iqtisodiy o'zgarishlar davomida tartibga solib borildi. Ayni vaqtda institutsional o'zgarishlar davom etdi: mulkchilik va xo'jalik yuritish shakllari o'zgartirildi, bozor infratuzilmasi unsurlari – birjalar, aksiyadorlik jamiyatlari, tijorat banklari, sug'urta kompaniyalari, lizing xizmatlari va boshqalar faoliyat yurita boshladi. O'tgan davr oralig'ida eng ko'p qonun va me'yoriy-huquqiy hujjatlar mulk munosabatlarini takomillashtirish, raqobat maydonini kengaytirish va erkin tadbirkorlikni rivojlantirish borasida qabul qilindi. Chunki bu “uchlik” har qanday mamlakatda bozor iqtisodiyotining ustunlarini tashkil etadi. Mulk munosabatlari ishlab chiqarish va jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy qiyofasi hamda mazmunini belgilaydi. Mamlakatimizda kichik, o'rta va katta xususiylashtirish deya nomlangan uch bosqichli xususiylashtirish amalga oshirilganiga qaramasdan, hali ham mulk munosabatlari takomiliga yetgan deb bo'lmaydi. Chunki bu to'xtovsiz jarayon, bozor munosabatlarining eng birinchi talabi.

O'zbekistonning geografik joylashuvi milliy iqtisodiyotni rivojlantirish uchun ham kuchli, ham zaif jihatlarni oldindan belgilab qo'ygan. O'zbekistonning Markaziy Osiyodagi barcha davlatlar bilan chegaradosh ekanligi uning mintaq bozorlaridagi

ahamiyatini oshiradi. Hudud bo'ylab o'tgan Buyuk ipak yo'li yurtimizga katta manfaat keltirgan.

Ikkinchi tomondan, mamlakatimiz Yevropa va Osiyo bozorlariga bir necha davlatlar orqaligina chiqish imkoniyatiga ega. Arzon dengiz yo'liga chiqish qiyin. Shuning uchun ham hukumatimiz temir yo'l va avtomobil xalqaro koridorlarini tashkil qilish bo'yicha amalga oshirilayotgan xalqaro mintaqaviy loyihalarda faol ishtirok etmoqda. Natijada ichki va tashqi yo'lovchi va yuk tashish aylanmalari yildan yilga oshib boryapti.

O'zbekistonda savdo-sotiqning qadimiy an'analari mavjud. Ammo bu yerda Buyuk ipak yo'lining ta'sirida faqat tashqi savdogina rivojlanib qolmagan. Ichki savdoni rivojlantirmay, o'sha vaqtda hunarmandchilik, to'qimachilikni rivojlantirish, so'ngra esa zavod va fabrikalar barpo etishning iloji yo'q edi. Mamlakatimizda iste'mol bozori ham tez sur'atlarda rivojlanayotgan segmentlardan hisoblanadi. O'tgan yili chakana savdo aylanmasi 250 trln. so'mga yaqinlashdi. Yillik o'sish sur'atlari 12 foizni tashkil etdi. Chakana savdo aylanmasining 73,8 foizi kichik korxona va mikrofirmalarga, 17,9 foizi yirik korxonalarga, 8,2 foizi esa uyushmagan savdoga, chakana savdoning 25 foizi Toshkent shahriga to'g'ri kelmoqda. O'tgan davrda ko'tara savdo hajmi 158 trln. so'mga, o'sish sur'atlari esa 17,5 foizga yetdi. Ko'tara savdoda ham davlat sektori ulushi muttasil kamayib boryapti, bu ham ijobiy tendensiyalardan, ya'ni bozor iqtisodiyoti talablaridan hisoblanadi.

Bugungi kunda O'zbekiston jahonning 182 mamlakati bilan savdo munosabatlariga kirishgan. Ular orasida yirikroq mavqega Rossiya Federatsiyasi, XXR, Qozog'iston, Turkiya, Koreya Respublikasi, Qirg'iziston va Turkmaniston ega. Keyingi yillarda MDH davlatlari bilan savdo-iqtisodiy aloqalar sezilarli rivojlandi va mamlakatimiz tashqi savdo aylanmasida 37,7 foizni tashkil etmoqda. Albatta, bundan keyin ham tashqi savdo tarkibi va geografiyasi takomillashib boradi.¹¹¹

Prezidentimiz tomonidan iqtisodiyotni rivojlantirish hamda liberallashtirish maqsadida 20 dan ortiq normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi, amaldagi qator qonunlarga o'zgartish va qo'shimchalar kiritildi, tadbirkorlik subyektlarini qo'llab-quvvatlash bo'yicha zarur shart-sharoitlar yaratildi. Xususan, davlatimiz rahbari tashabbusi bilan Kichik tadbirkorlikni rivojlantirish kafolat jamg'armasi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Tadbirkorlik sub'ektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakili instituti tuzildi. Xalqaro ekspertlarning qayd etishicha, O'zbekistonda iqtisodiy siyosatni amalga oshirish bo'yicha yondashuv o'zgaryapti. Bu, avvalambor, aholining iqtisodiy faolligini oshirish va qulay ishbilarmonlik muhitini yaratishga qaratilgandir. Bunda asosiy e'tibor yuqori texnologik va innovatsion ishlab chiqarishni tashkil qilish hamda kengaytirishga xorijlik sheriklar va investitsiyalarni jalb etishga qaratilmoqda.

¹¹¹ A.V.Vahobov., T.S.Malikov.Moliya. «NOSHIR».Toshkent-2012. 120- b.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. A.V.Vahobov., T.S.Malikov.Moliya. «NOSHIR».Toshkent-2012. 636- b.
2. Мадина Гайфулина./специалист департамента. Оценка эффективности операционного механизма денежно-кредитной политики. Тошкент. 2021 .
3. Mirazizov A., Radjabova I., Rasulov N., Faizulloyev M., Mamatkulov A., Davlatzoda D., Azimov H., Dzuhrayev G., Ahmadov B./ The effektivnenes of financial and monetary instruments of sustainable developement in Tadjikistan'S./ Economy and ways of improving them./ Journal of internet Banking &Commerce.2016. Vol.21 Issue 3, p1-13./ 13p.
4. Mayexl N., Monetar siyosatni qo'llash:Rivojlanayotgan monetary rejimlarga ega mamlakatlardagi operatsion masalalar(XVF).